



## OILA TARBIYASIDA HALOLLIKNI SINGDIRISH

*Andijon davlat universiteti*

*huquq va ma'naviyat asoslari kafedrasini mudiri :*

*(PhD), Dotsent. Amirxo'jayev. Sh.Q.*

*“Har qanday inson uchun muhim va muqaddas qadriyat – bu uning oilasidir. Sog'lom va mustahkam oila – davlat tayanchi va jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Kattaga hurmat, kichikka izzat, odamiylik, mehr-oqibat kabi oliyjanob fazilatlar avvalo oilada qaror topadi”*

***Sh.M.Mirziyoyev <sup>1</sup>***

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada oilaviy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni, ayniqsa farzandlarga halollik, adolat, mehr-oqibat va mas'uliyat kabi fazilatlarni singdirish masalalari tahlil etiladi. Muallif oilada ota-onaning shaxsiy namunasi, adolatli taqsimlash (masalan, sovg'a va shirinliklarni teng taqsim qilish), oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat va mehr-muhabbatning bolalar xulq-atvoriga bevosita ta'sirini misollar orqali ochib beradi. Sharq allomalari – Forobiy, Ibn Sino va Alisher Navoiyning oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari asosida halollik va axloqiy tarbiyaning oiladan boshlanishi zarurligi ta'kidlanadi. Mustaqil O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida oilaning tarbiyaviy rolini kuchaytirish masalasi ham yoritilgan. Maqola oilada halollikni shakllantirishning amaliy usullari va ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish zarurligini xulosalaydi.

***Kalit so'zlar:*** Oila tarbiyasi, halollik, axloqiy tarbiya, adolat, ota-ona namunasi, farzand tarbiyasi, Sharq allomalari, Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, ma'naviy qadriyatlar, barkamol avlod, O'zbekiston.

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev: Inson qadrini ulug'lash avvalo aziz-u mukarrama ayollarni ulug'lashdan boshlanadi. <https://president.uz/oz/lists/view/7077>



**Abstract:** *This article analyzes the important role of family upbringing in the development of society, especially the issues of instilling qualities such as honesty, justice, kindness, and responsibility in children. Through examples, the author reveals the direct influence of parents' personal example in the family, fair distribution (for example, equal distribution of gifts and sweets), mutual respect and love between family members on children's behavior. Based on the views of Eastern scholars - Farabi, Ibn Sina, and Alisher Navoi on family upbringing, it is emphasized that honesty and moral education should begin in the family. Within the framework of the state youth policy of independent Uzbekistan, the issue of strengthening the educational role of the family is also highlighted. The article summarizes the practical methods of forming honesty in the family and the need to improve the pedagogical culture of parents.*

**Keywords:** *Family upbringing, honesty, moral education, justice, parental example, child-rearing, Eastern scholars, Farabi, Ibn Sina, Alisher Navoi, spiritual values, harmoniously developed generation, Uzbekistan.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется важная роль семейного воспитания в развитии общества, особенно вопросы привития детям таких качеств, как честность, справедливость, доброта и ответственность. Автор на примерах раскрывает непосредственное влияние личного примера родителей в семье, справедливого распределения (например, равное распределение подарков и сладостей), взаимного уважения и любви между членами семьи на поведение детей. Основываясь на взглядах восточных ученых - Фараби, Ибн Сины и Алишера Навои на семейное воспитание, подчеркивается, что честность и нравственное воспитание должны начинаться в семье. В независимом Узбекистане в рамках государственной молодежной политики также освещен вопрос усиления воспитательной роли семьи. В статье делается вывод о практических методах формирования честности в семье и необходимости повышения педагогической культуры родителей.*



*Ключевые слова:* Семейное воспитание, честность, нравственное воспитание, справедливость, пример родителей, воспитание детей, ученые Востока, Фараби, Ибн Сина, Алишер Навои, духовные ценности, гармонично развитое поколение, Узбекистан.

## **Kirish**

Oilaviy tarbiya har qanday jamiyat taraqqiyoti barqarorligining muhim poydevoridir. Har bir insonning shakllanishida, uning axloqiy qiyofasi, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari, ma'naviy va madaniy qadriyatlari rivojida oila beqiyos ro'l o'ynaydi. Aynan oilada bola hayotni anglaydi, dastlabki ijtimoiy tajribani orttiradi, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va razolat, mehnat va mas'uliyat kabi tushunchalarni ongiga singdiradi. Bugungi globallashuv, axborot oqimining tezkorligi, turli madaniyatlarning o'zaro aralashuvi sharoitida yosh avlodni barkamol inson etib voyaga yetkazish – jamiyatning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa, avvalo, oila tarbiyasini tizimini mustahkamlash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Oila-jamiyatning birinchi ijtimoiy bo'g'ini sifatida nafaqat farzand tarbiyasiga, balki millat va xalq kelajagining shakllanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun xam, azaldan buyuk allomalarimiz oila tarbiyasiga katta e'tibor qaratgan, unga oid o'z qarashlarini bayon etganlar.

## **Asosiy qism**

Oila beqiyos milliy va umumbashariy qadriyatlardandir. Oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy birligi, uning asosi hisoblanadi. Shu bilan birga oila yuksak darajadagi insoniy qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi institute va ma'naviy axloqiy tarbiya o'chog'i hamdir. Aynan oilada ko'pchilik gumanitar qadriyatlar tarbiyalanadi, o'stiriladi va targ'ib qilinadi.

Har bir xalq va milliy an'analar tarkibida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ammo zamonaviy jamiyatlardagi keskin o'sish sur'atlari hamda insonning juda katta ijtimoiy faoliyatining uning oilasi va oila a'zolari munosabatlariga bo'lgan kuchli ta'siri asosida milliy an'analar hamda dolzarb va yangitdan vujudga kelayotgan savollarga to'liq javob bera olmaydi. Shu



bois, milliy an'analarni oilaviy turmush borasidagi umumbashariy nazariy bilimlar bilan qo'shib olib borishi talab etiladi.<sup>2</sup>

Oilaviy tarbiya – bola shaxsini shakllantirishda eng birinchi va eng muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. Shuningdek, maktab – bolaning ijtimoiylashuvi, bilim olish va odob-axloq normalarini egallashi uchun muhim ta'lim-tarbiya maskanidir. Bu ikki institut – oila va maktab – bir birini to'ldiruvchi va uzviy bog'liq tarbiya muhitlaridir. Oilada va jamiyatda er va xotin teng huquqlarga ega. Bu yerda qonunda belgilangan huquqlar haqida gap ketmoqda. Bunday tenglik saylash, saylanish, kasb tanlash, ishlash, bilim olish, o'ziga yor tanlash va va hokazo huquqlarda o'z ifodasini topadi. Lekin ikki jinsning biologik, ruxiy tuzilishi nuqtai-nazaridan bunday tenglik yo'q. Shuning uchun ayol va erkakning oilada ro'zg'or tebratish, farzandlarni tarbiyalash, farzandlarning oila yumushlariva vazifalaridagi mehnat taqsimoti masalalaridagi huquq va burchlarida birmuncha tafovutlar mavjud.

Erkakning vazifasi – oilaning ma'naviy, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash. Ayoli va farzandlarining tashvishlariga sherik bo'lish. Oilaga soya solayotgan xavf-xatarlarga qalqon bo'la olish. Oila a'zolariga g'amxor bo'la olish.

Ayolning vazifasi – oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish. Ularni oq yuvib, oq tarash. Erkakning tashib kelgan oziq-ovqatlarini pishirish, mehmon kutish. Er va bolalarini ishga va o'qishga kuzatib, kutib olish. Aytaylik, bozordan shirinlik harid qildingiz, kelgan zaxotiy oq uni kichigingizga berdingiz-u hech kimga ko'rsatma dedingiz. U esa bolaligiga borib, shirinlikni hamma akalariga ko'z-ko'z qilib chiqdi. Lekin ularga yo'q. Ular o'ksinishadi. Kichik bo'lgan yaxshi ekan deyishadi. Hamma narsa kichikka, sovg'a ham, shirinlik ham, erkalatish ham, deb bolalar orasida yakkalik, o'zini uzoq tutish kayfiyatlari paydo bo'la boshlaydi. Bunday xolatlarga yo'l qo'ymaslik uchun, uyga biror narsa harid qilib, olib kelganingizda har doim uni adolatli taqsim qiling. Taqsimlash jarayonida ota-ona o'zlarini ham unutmashliklari kerak. Bu juda muximdir. Bolalaringiz bu jarayonni ko'rsa, vaqti kelib ular ham topib keladigan bo'lganlarida sizga ulush ajratishni

<sup>2</sup> Amirxo'jayev Shukurjon Qurbonovich : Oila ma'naviyati, - Toshkent: "O'zbekiston", 2025. – B. 195



unutmaydilar. Bolalar oldida qilgan bu adolatli taqsimingiz ular uchun eng katta saboq bo'ladi. Birinchidan, ular bir-bilariga mehrlari orta boradi. Ikkinchidan, doimo ota-onani eslab turadigan bo'ladilar. Aks holda olib keladigan narsalaringizni faqat bolalaringizga taqsim qiladigan bo'lsangiz, keyinchalik ular sizni eslamaydilar, faqat o'zlarini o'ylaydigan bo'lib qoladilar. Ayniqsa, qarib kuch-quvvatdan qolganingizda tarbiyada yo'l qo'ygan bu xatoingiz siz uchun juda katta azobga, tuzatib bo'lmas armonga aylanadi.

Farzandlaringizga bir ko'z bilan qarasangiz, kattasini katta, kichigini kichik deb, shunga yarasha ish tutsangiz, kichiklarning kattalari bilan maslahatlashib ish tutishlariga, kattalarining kichiklarini izzat qilishga, ularni ximoya qilishga odatlantirsangiz, ularni yaxshi ishlarini ma'qullab, rag'batlantirib borsangiz, yomon ishlarni o'z vaqtida qaytarib, bu ishning nima uchun yomonligini yotig'i bilan tushuntirib borsangiz, farzandlaringizning kamoli, o'zingizning kelajakdagi roxat-farog'atingiz uchun juda muhim va katta tarbiyaviy ishni amalga oshirgan bo'lasiz. Ulardagi mehr-oqibatni, obro'larini ko'rib, o'z hayotingizdan mamnun bo'lasiz, farzandlaringiz tariyasi borasidagi chekkan zaxmatlaringiz, mashaqqatlaringiz unutiladi.

Tarbiyaning ildizi – oilada, ya'ni bola hayotga qadam qo'ygan ilk muhitda yotadi. Har qanday jamiyat, millat yoki davr farzand tarbiyasiga doimo e'tibor bilan qarab kelgan. Sharq va G'arbning buyuk mutafakkirlari asarlarida oilaviy tarbiya masalasi chuqur o'rganilgan, unga oid qimmatli pedagogic, axloqiy va falsafiy qarashlar ilgari surilgan. Ularning qarashlari o'z davri uchun dolzarb bo'lishi bilan birga, bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sharq mutafakkirlarining oilaviy tarbiyahaqidagi fikrlari:

Sharq allomalari oilani – inson kamolotining boshlang'ich maktabi, tarbiyaning birinchi zinasidek qarashgan. Ular asarlarida oilaviy muhit, ota-onaning ro'li, axloqiy tarbiya, mehnatsevarlik va adolat mezonlarini tarbiyadagi asosiy ustun sifatida ilgari surganlar.

**Abu Nasr Forobiy (873-950)**



Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyoti uchun ahloqli, bilimli va komil shaxslarni tarbiyalash zarurligini uqtiradi. Unga ko'ra:

- Tarbiya insoniyatning eng muhim vazifasidir;
- Tarbiya oiladan boshlanishi kerak;
- Ota-ona o'zini doimiy rivojlantirishi, bilimli va odonli bo'lishi lozim.
- Ota-ona o'zini doimiy rivojlantirishi, bilimli va odobli bo'lishi lozim.

Forobiy fikricha, farzand axloqiy barkamollikka faqatgina bilimdon va namunali ota-onalar qo'lida yetadi. Shuningdek, u tarbiyada mehr va mantiqiy yondashuv muhimligini ta'kidlaydi.

### **Abu Ali ibn Sino (980-1037)**

Ibn Sino "Donishnoma" asarida bolaning ruhiy, jismoniy va aqliy rivojlanishida oilaning hal qiluvchi rolini e'tirof etadi. Uning fikricha:

Bola tarbiyasi ona suti bilan boshlanadi, ya'ni ona bolaning eng birinchi muallimi hisoblanadi;

Tarbiyada shaxsiy namuna birinchi o'rinda turadi;

Farzandning salohiyati yoshligidan to'g'ri yo'naltirilsa, kelajakda barkamol inson hisoblanadi.

Ibn sino ota-onalarni bolaga erta yoshdan boshlab sog'lom ovqatlanish, gigiyena, mehnat, muomala madaniyatini o'rgatishgacha qiradi. U tarbiyani "hayotni o'rgatish san'ati" deb ta'riflaydi.

### **Alisher Navoiy (1441-1501)**

Buyuk adib va mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida tarbiya masalalariga alohida e'tibor bergan. U "Mahbub ul-qulub" va boshqa nasriy asarlarida:

- Yaxshi ota-onaning fazilatlarini;
- Axloqli farzandning belgilar;
- Mehnatsevarlik va vatanparvarlikning tarbiyadagi o'rnini ochib bergan.

Navoiy fikricha, ota-ona farzandini o'z amaliyoti, so'zi va harakati bilan o'rgatmog'i, bo'sh vaqtini foydali ishlarga yo'naltirmog'I kerak. U: "Tarbiya



ko'ngildan boshlab, xulq bilan davom etur" deya inson tarbiyasini qalb va amaliyot uyg'unligi bilan bog'laydi.

Farzandga shaxs sifatida yondashish, uni ongli, aqlan yetuk va ma'naviy barkamol etib voyaga yetkazish – har ikki tomonning maqsadidir. Bolalar nutqi shakllanishi, rivojlanishi asosida ularni kattalarga hurmat, do'stlik, insoniylik, halollik kabi odob qoidalariga o'rgatib boriladi. Shu asosda oilada kundalik ish davomida bolalarda xulq-atvor mezonlarini qaror toptirib boradi.

Huddi ana shu mezonlar asosida keyinchalik axloqning murakkab shakllari – jamoatchilik, vatanparvarlik, hayotning ijtimoiy-siyosiy tomonlariga qiziqishning dastlabki shakllanish jarayoni davom etadi. Oiladagi axloqiy tarbiya faqat xulqni tarbiyalash bilan cheklanmasdan, balki barkamol inson axloqini to'g'ri tasavvur qildiradi, uning tarkibi, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Mana shu asosda oila a'zolarida inson xarakteri, hayot bosqichlari qaror topadi. Oilaviy hayotning o'ziga xosligi ham mana shunda.

## **Xulosa**

Oila – jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, inson shaxsining shakllanishida, uning axloqiy, ma'naviy va ruhiy kamolotida asosiy ro'l o'ynaydi. Bola hayotning ilk kunlaridanoq o'zining ijtimoiy tajribasini aynan oilada to'playdi, muomala madaniyatini, urf-odat va an'analarini, axloqiy qadriyatlarini o'rganadi. Shuning uchun ham oilaviy tarbiya – tarbiyaning birlamchi, eng muhim va uzviy qismidir. Oilada tarbiya jarayoni faqat nazariy ta'lim yoki og'zaki ko'rsatmalar bilan emas, balki kundalik hayotdagi harakatlar, muomala, shaxsiy namunalar orqali shakllanadi. Ota-onaning shaxsiy fazilatlari, o'zaro munosabati, farzand bilan muloqoti, mehnatga, odobga, jamiyatga bo'lgan munosabati – bularning barchasi bola tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shavkat Mirziyoyev: Inson qadrini ulug'lash avvalo aziz-u mukarrama ayollarni ulug'lashdan boshlanadi. <https://president.uz/oz/lists/view/7077>
2. Amirxo'jayev Shukurjon Qurbonovich. Oila ma'naviyati, -Toshkent: "Matbaatchi" nashriyoti, 2025. 290-b.



3. Forobiy, Abu Nasr. “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: Sharq, 1990.
4. Karimov, I. “Milliy tarbiya va uning jamiyatdagi’rni”. – Toshkent: Ilmiy maqolalar to’plami, 2019.
5. Ibn sino, Abu Ali. “Donishnoma”. – Toshkent: Fan, 1985.
6. Navoiy, Alisher. “Mahbub ul-qulub”. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002.